

▼ Семинар

Тошкент давлат аграр университетининг ўқув-илмий тажриба хўжалигида “Сабзавотларни етиштиришнинг илғор тажрибалари” мавзусида илмий-амалий дала семинари бўлиб ўтди. Унда университет ректори Нарзулло Обломуродов, Қишлоқ хўжалиги вазирлигининг илм-фан, инновациялар ва таълимни ривожлантириш бошқармаси бош мутахассиси Элбек Тоғаймуродов, соҳа мутахассислари, профессор-ўқитувчилар, талабалар ҳамда оммавий ахборот воситалари ходимлари иштирок этишди.



ДИПЛОМЛИ ДЕХҚОННИНГ ДАЛАСИ... Европа олимларини ҳам қизиқтириб қўйди



▼ Munosabat

Buyuk allomalar-dan biri Abu Nasr Forobiy har bir inson barcha bilimlarni puxta egallamog'i, yaxshi va barkamol tarbiya olmog'i va eng yaxshi fazilatlariga ega bo'lmog'i kerak, kishi uchun tub g'oya – saodatdir, bu saodatning kaliti esa ilmdir, degan ekanlar.

Dunyoqarash o'zgarmasa, natija bo'lmaydi

Darhaqiqat, ilm, ta'lim-tarbiya insonni o'zgartirsa, ma'naviy boy, tafakkuri yuksak shaxs jamiyatni o'zgartiradi. Demak, o'qituvchi inson va jamiyatni o'zgartirish kuchiga qodir bo'lgan shaxs hisoblanadi.

So'nggi yillarda O'zbekistonda ta'lim sohasiga katta mablag' ajratilayotgani, infratuzilmalar qurilayotgani va ustozlarga moddiy rag'bat ko'rsatilayotganining zahirida mana shu olibanob maqsadlar mujassam.

Xususan, malaka, til bilish, yangi baholash tizimi, fan olimpiadalari kabi mezonlar asosida o'qituvchilarga 10 dan ortiq ustamlar joriy qilingan. Hozirda, bundan samarali foydalangan 60 ming o'qituvchi 8-12 million so'm maosh olaypti.

Prezidentimiz raisligida maktab ta'limi tizimidagi islohotlar samaradorligini yanada oshirish hamda kelgusidagi ustuvor vazifalar yuzasidan videoselektor yig'ilishida ta'kidlanganidek, ish haqi qancha ko'paymasin, toifa, malaka, metodika va dunyoqarash o'zgarmasa, natija bo'lmaydi. Shu nuqtai nazardan, yig'ilishda davlat rahbari ta'lim sohasini inson kapitali asosida transformatsiya qilishga alohida e'tibor qaratdi. Bu islohotlar, birinchi navbatda, pedagog kadrlar tayyorlash va malaka oshirish tizimidan boshlanmoqda.

Haqiqatan ham ta'limda sifat bo'lishi uchun eng avvalo pedagoglarni tayyorlash va malakasini oshirish tizimi bunga tayyor bo'lishi kerak. Shu bois, Nizomiy oliygohi – Milliy pedagogika universiteti sifatida tayanch oliygoh, uning rektori esa bir vaqtning o'zida kadrlar tayyorlash bo'yicha vazir o'rinbosari etib belgilandi.

▼ Shukuh

"So'nggi qo'ng'iroq"ning YANGI UMIDLARI

Bugun yurtimiz maktablarida eng hayajonli, eng quvunchli va biroz sog'inchli kunlardan biri – “So'nggi qo'ng'iroq” tadbirlari o'tkazilib, o'quv yili yakunlanadi.



Toshkent viloyati maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasining ma'lum qilishicha, bu o'quv yilida jami 35 ming 774 nafar o'quvchi 11-sinfni tamomlaydi. Ularning katta qismi – umumta'lim maktablari bitiruvchilari bo'lsa, qolganlari Prezident maktabi, ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari va nodavlat maktablari o'quvchilari. Ular orasida o'zining a'lo baholari, faolligi va intiluvchanligi bilan ajralib turgan 889 nafar bitiruvchi “Oltin medal”, 223 nafari esa “Kumush medal”ga tavsiya etilib, “e-shahodatnoma” platformasi orqali rasmiylashtirildi.

ПАРКЕНТ УЗУМИ: БАРГИДАН МАЙЗИГАЧА ПУЛ



МАМЛАКАТИМИЗ МАКТАБЛАРИНИ БИТИРУВЧИ ЎГИЛ-ҚИЗЛАРИМИЗГА

Қадрли фарзандларим!

Аввало, сиз, азизларни ҳаётингиздаги бугунги унутилмас қувончли воқеа – мактаб таълимини муваффақиятли тугатиб, етуқлик шаҳодатномасини қабул қилиб олаётганингиз ва мустақил ҳаётга қадам қўяётганингиз билан самимий муборакбод этаман.

Ушбу шукҳули айёмда мамлакатимиздаги 10 мингдан зиёд мактабда меҳрибон устозлар, ҳурматли ота-оналар иштирокида “сўнгги кўнғироқ”лар жаранглаб, 450 минг нафардан ортиқ битирувчи ёшларимиз шаънига эзгу тилаклар билдирилмоқда.

Барчамиз бу фикрларга чин дилдан қўшилган ҳолда, катта орзу-умидлар билан келажак режаларини тузаётган ўғил-қизларимизга уларни амалга оширишда улкан куч-ғайрат, омад ва зафарлар тилаймиз.

Айниқса, мактабни олтин медаль билан битираётган 11 минг 500 нафардан зиёд фарзандларимизга, 2 мингдан ортиқ кумуш медаль соҳибларига ўқиш ва изланишда, жамоат ишларида ўз тенгдошларига доимо ўрнак ва намуна бўлиб келаётганлари учун алоҳида табрик ва тилакларимизни изҳор этамиз.

Азиз битирувчи ёшлар!

Бугунги кунда биз ўз олдимизга қўяётган буюк мақсадларни амалга оширишда бутун халқимиз қатори, билимли, ҳунарли, тadbirkor ва ватанпарвар, ҳар томонлама етуқ ёшларимизга таянамиз.

Келажакимиз эгалари бўлган навқирон авлодимиз Янги Ўзбекистонни барпо этишда катта бунёдкор куч сифатида иштирок этиши учун зарур шароитларни яратиб бермоқдамиз. Жумладан, сизларнинг замонавий илм ва касб-ҳунарлар, она тили билан бирга хорижий тиллар, IT ва инновацион технологияларни, ижод ва tadbirkorlik соҳаларини пухта эгаллашингиз учун ҳозирги кунда 201 та oliy ўқув юрти, 598 та техникум, кўплаб мономарказ ва технопарклар, кутубхоналар, маданият, санъат ва спорт муассасалари самарали фаолият кўрсатмоқда.

Таълимнинг барча бўғинларида ўқув-тарбия ишларининг сифати ва

натияждорлигини ошириш, битирувчи ёшларимизга танлов имкониятларини кенгайтириш учун янги-янги тизим ва дастурлар, электрон платформа-лар ишга туширилмоқда.

Сизлар ана шундай беқисс имкониятлардан оқилона фойдаланиб, ёшлик фаслининг олтинга тенг ҳар бир дақиқасини қадрлаб, келгусида Ватанимиз мустақиллигини, эл-юртимиз манфаатларини барча соҳаларда дадил ҳимоя қиладиган етуқ кадрлар, ongli ва олижаноб инсонлар бўлиб, халқимизга сидқидилдан хизмат қиласиз, деб ишонаман.

Шуни асло унутманг, одамзот ҳаётда муносиб ўрин топиши, эл-юртнинг ҳурмати ва эътиборига сазовор бўлиши учун миллий ва умуминсоний қадриятларни эгаллаб, доимо олдинга интилиб яшаши, изланиш ва ўрганишдан асло тўхтамаслиги керак.

Халол ва машаққатли меҳнат, илмга, касбга, ота-она ва oilaga садоқат, ҳеч шубҳасиз, инсонни юксалтиради, унинг ҳаётини файзли ва чарогон этади.

Айниқса, сизлар каби навқирон, азму шижоатли ёшларимизга шиддатли замондан ибрат олиб, ҳар кунги бир натижага эришиб, иродангизни синовларда тоблаб, фақат ва фақат олдинга қараб бориш ярашади.

Аминман, сизларнинг янги ғоя ва ташаббусларингиз, турли соҳалардаги ютуқларингиз Янги Ўзбекистонни янада қудратли этакдан моддий ва маънавий асосларни барпо этишга беқисс ҳисса бўлиб қўшилиди.

Сизлардек ўз кучига ишонган, қатъиятли ёшлардан қадрдон мактабингиз, азиз устозларингиз ва ота-оналарингиз, бутун халқимиз фақат эзгу ишлар ва ёрқин натижалар кутади.

Ана шундай юксак ишончга доимо муносиб бўлинг!

Интилиш, изланиш ва янгилик яратишдан асло чарчаман!

Мустақил ҳаёт сари ilk қадамларингиз кутлуг бўлсин, азиз ўғил-қизларим!

Шавкат МИРЗИЁЕВ,
Ўзбекистон Республикаси
Президенти

ТУРКИЙ ҲАМКОРЛИК: ИМКОНИЯТЛАР ЙЎЛИ

Бугун мамлакатимизнинг дунё ҳамжамиятидаги ўрни, минтақавий ва халқаро жараёнлардаги иштироки йилдан-йилга сезиларли даражада ошиб борапти. Учинчи Ренессанс пойдеворига замин яратаётган Янги Ўзбекистон тараққиётнинг янги босқичида ўз миллий манфаатларини илгари сурган ҳолда аввал кузатилмаган фол, очик, прагматик ва амалий ташқи сиёсат юритмоқда. Бу эса, халқаро майдонда кўплаб давлатлар томонидан эътироф этиляпти. Энг муҳими, Ўзбекистон қадриятлари, қарашлари ҳамоҳанг бўлган мамлакатлар билан дўстона алоқаларини янада мустаҳкамлаб бормоқда.



Ўзбекистон – Венгрия ўртасидаги ўзаро ҳамкорлик бугун тарихий ришталар, геосийсий манфаатлар, қолаверса, аниқ ёндашувлар асосида тобора шаклланиб бормоқда. Бу икки мамлакат ўтмиши, маданияти ва мақсадлари билан фарқ қилса-да, уларни умумий стратегик манфаатлар билрлаштириб туради. Айниқса, жорий йил 19-21 май кунлари Президент Шавкат Мирзиёевнинг Венгрия Бош вазири Виктор Орбан тақлифига биноан қилган расмий таширифи ҳам икки мамлакат ўртасидаги стратегик шериклик ва кўп қиррали ҳамкорлик муносабатларининг янги босқичга кўтарилаётганидан дарак беради.

Фурсатдан фойдаланиб, мазкур учрашувнинг баъзи муҳим жиҳатларига эътиборингизни қаратмоқчимиз. Ташриф давомида давлатимиз раҳбари Венгрия пойтахти Будапешт шаҳрида бўлиб ўтган Туркий давлатлар ташкилотининг норасмий саммитида фаол иштирок этди. Венгрия Бош вазири раислигида ўтган тadbir-

да Озарбайжон Республикаси Президенти Илҳом Алиев, Қозғистон Республикаси Президенти Қасим-Жомарт Тоқаев, Қирғиз Республикаси Президенти Садир Жапаров, Туркия Президенти Режеп Таййип Эрдоган ҳамда Туркий давлатлар ташкилоти бош котиби Кубаничбек Омуралиев ҳам қатнашди. Мазкур юқори даражадаги учрашув халқаро муносабатлар ва минтақавий ҳамкорликдаги муҳим воқеа сифатида қайд этилди.

Давлатимиз раҳбари сўзининг аввалида жаҳонда геосийсий ва геоктисодий зиддиятлар, минтақавий низолар ва иқлим ўзгариши оқибатлари кучайиб бораётган бугунги мураккаб вазият тобора кескинлашиб бораётганини қайд этаркан, бундай долзарб халқаро муаммоларни ҳал этишда, биринчи навбатда, халқаро ҳуқуқ нормалари ва БМТ Низомига таянган ҳолда ташкилот давлатларининг умумий ёндашув ва позицияларини мустаҳкамлаш муҳимлигини таъкидлади.

"So'nggi qo'ng'iroq"ning YANGI UMIDLARI

Ta'kidlash joizki, so'nggi yillarda sohada olib borilayotgan islohotlar natijasida ta'lim sifati sezilarli darajada yaxshilandi. Bu esa, o'z navbatida, bitiruvchilarning oliy ta'lim muassasalariga kirish ko'rsatkichlarini oshirdi. E'tiborlisi, maktabni tugatmayoq talaba bo'lganlar ham anchagina. Xususan, joriy yilda viloyat miqyosida 75 nafar o'quvchi maktabni tugatmasdan turib, muddatidan oldin talaba maqomiga erishdi. Bu yoshlarning 42 nafari yurtimizdagi oliy ta'lim muassasalariga, 33 nafari esa xorijdagi nufuzli universitetlarga o'qishga qabul qilingan. Buni esa bevosita maktablarda ta'lim sifatining yuksalayotgani, o'quvchilar bilan olib borilayotgan maqsadli va tizimli ishlarning samarasi sifatida baholash mumkin.

Toshkent tumanidagi 17-umumta'lim maktabi bitiruvchisi Akbar Shukrullayev ana shunday omadli yoshlardan. U AQSHning 6 ta nufuzli universitetiga talabalikka tavsiya etildi.

— 11 yil davomida ustozlarimdan olgan bilimlarim sababli muddatidan avval talaba bo'ldim, — deydi Akbar. — Buning uchun ulardan minnatdorman. Kelajakda ingliz tili o'qituvchisi bo'lmog'im (Davomi. Boshlanishi 1-sahifada)



chiman. Albatta, qadrdon maktabimiz, ustozlar bilan xayrlashish og'ir. Ammo bizni oldinda sarguzashtlarga boy, qiziqarli hayot kutmoqda. Barcha tengdoshlarimga maqsad sari intilishdan to'xtamanglar, deyman.

Darvoqe, Olmaliq shahridan har yili ko'plab bitiruvchilar maktab ostonasini tark etmay turib, oliyog'ha yo'llanma qo'lga kiritishadi. Bu yil ham mazkur an'ana buzilmadi. Xususan, 2024-2025 yilgi uquv yilida shahardagi 1-sonli umumta'lim maktabini 261 nafar o'quvchi bitirmoqda. E'tiborlisi, ularning 100 nafaridan ortig'ida turli fanlardan oliy

ta'limga kirish imtihonlarida eng yuqori ballni taqdim etuvchi sertifikatlar bor. Shuningdek, 18 nafar bitiruvchi turli milliy va xalqaro toifadagi sertifikatlarni qo'lga kiritib, grant asosida yurtimizdagi oliyog'hlarda tahsil olish imkoniyatini qo'lga kiritdi. Shulardan biri — Sevinch Jabborova. U bolaligidan orzu qilgan shifokor kasbini egallash maqsadida bir necha yil o'qidi, izlandi. Qilgan sa'y-harakatlari o'z mevasini berib, tibbiyot yo'nalishidagi oliyog'hlarga kirish imtihonlarida tushadigan barcha — beshta fandan milliy sertifikatlarni qo'lga kiritib, maktabni bitirmay talaba

maqomiga sazovor bo'ldi.

— Bu muvaffaqiyatga erishishimda ustozlarimning, ota-onamning xizmatlari ulkan, — deydi Sevinch. — Ochig'i, bunga ishonmagandim. Ilgari maktabimizdan, mahallamizdan kimdir muddatidan oldin talaba bo'lsa, "Qanday mazza. Imtihon javoblari kutib, sabrini sinab o'tirmaydi" deya havas qilib, ulardek omadli bo'lishni orzu qilardim. Shukur, bugun orzularim ro'yobga chiqdi. Bundan juda ham xursandman. Ayniqsa, ota-onamning quvonchlarini ko'rib, ich-ichimdan o'zgacha yoqimli hislarga ko'mildim. Kelgusida menga ishonch bildirganlarning ishonchini oqlash, qolaversa, o'z kasbimning yetuk mutaxassisi bo'lib yetishish uchun astoydil harakat qilaman.

"So'nggi qo'ng'iroq" — bu shunchaki bayram emas, bu bitiruvchilar hayotidagi yangi sahifa, yangi bosqichga qo'yilayotgan ilk qadamdir. Bu — maktab hayoti, o'qituvchilar mehnati, o'zlashtirilgan bilimlar va orzularni jamlagan yakuniy daqiqalardir. Shu bois har yili bu kun hayajon bilan kutiladi, o'ziga xos mazmun va tuyg'ular bilan esda qoladi.

Bugun maktab bilan xayrlashayotgan har bir bitiruvchiga yorqin kelajak, ulkan yutuqlar va orzulari ushaliishini tilaymiz. Ularning har biri ertangi kunimiz poydevoridir. Va ishonamizki, ular bu poydevorning mustahkam va barqaror bo'lishi uchun astoydil harakat qilishadi.

Mehrididdin IBRAGIMOV,
"Toshkent haqiqati" muxbiri

▼ Jarayon



TA'LIMDA SAMARALI HAMKORLIK

Kasbiy ta'lim sohasida institusional yaxlitlikni ta'minlash va boshqaruv tizimi samaradorligini oshirish, xalqaro ta'lim dasturlarini joriy etish hamda ichki va tashqi mehnat bozori talablariga mos raqobatbardosh o'rta bo'g'in kadrlari tayyorlash tizimini isloh qilish maqsadida kasbiy ta'lim tashkilotlari o'quv jarayoniga xalqaro ta'lim dasturlarini joriy qilish maqsadida politexnikumlarda tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

Axborot texnologiyalari, xususan, dasturiy injiniring va kompyuter tizimlari yo'nalishlarida malakali kadrlar tayyorlash tizimini yana takomillashtirish maqsadida Piskent tumanidagi 1-son Politexnikumi va Rossiyaning Sankt-Peterburg shahridagi "Xekslet" ta'lim muassasasi bilan xalqaro hamkorlik memorandumini imzolandi. Bu kelishuvga Toshkent viloyati Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar boshqarmasi boshlig'i N.Kulbekova va Politexnikum direktori T. Azamatovning Sankt-Peterburg shahriga qilgan safari davomida erishildi.

Unga ko'ra, ta'lim jarayonlari sirtqi, masofaviy va dual shakllarda tashkil etilishi rejalashtirilgan. Shuningdek, zamonaviy IT texnologiyalarini o'quv jarayoniga tatbiq etish, o'quv-uslubiy almashinuvlar, xalqaro grantlarda ishtirok etish kabi yo'nalishlarda hamkorlik olib boriladi. Mazkur memorandum viloyatimizda kasbiy ta'lim tizimini xalqaro an'dazalar asosida takomillashtirish yo'lidagi muhim bosqichlardan biri bo'ldi.

Tashrif doirasida vakillari-miz shahardagi ilg'or texnologik markazlar — IT park, texnopark hamda xususiy ta'lim muassa-

salaridan biri — "Xekslet"ga tashrif buyurib, ushbu ta'lim dargohida axborot texnologiyalari, dasturiy injiniring, kompyuter tizimlari kabi istiqbolli yo'nalishlarda tahsil olayotgan talabalar uchun yaratilgan zamonaviy o'quv muhiti, innovation metodikalar hamda amaliy mashg'ulot jarayonlari bilan yaqindan tanishdi.

Shuningdek, ta'lim sifati, pedagogik kadrlar salohiyati, xalqaro tajribani tatbiq etish usullari, raqamli ta'lim platformalarining joriy etilishi kabi dolzarb masalalar muhokama qilindi.

Uchrashuvlar jarayonida Toshkent viloyatida faoliyat yuritayotgan kasbiy ta'lim muassasalari bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish imkoniyatlarini ko'rib chiqildi. Tomonlar o'zaro tajriba almashish, innovation yondashuvlarni joriy qilish va IT sohasida mutaxassislar tayyorlashda hamkorlik qilishga tayyor ekanliklarini bildirdilar.

Bunday memorandumlar barchani ta'lim sohasini rivojlantirishga, kasb-hunarni mustahkam egallashga va qolaversa yangi maqsadlarga erishishga undashi shubhasiz.

Ra'no MIRAHMEDOVA,
Piskent tumanidagi 1-son Politexnikumi o'qituvchisi

Dunyoqarash o'zgarmasa, natija bo'lmaydi

Hududlardagi 12 ta pedagogika oliyog'hi ham MMTV tizimiga o'tkazildi. Bunday yondashuv pedagog kadrlar masalasida talab va taklifning bir-biriga mutanosib ravishda shakllanishini ta'minlashga xizmat qiladi.

Bilimli yoshlarni tizimli yo'naltirib, jahondagi top-10 universitetlarga kirishini ta'minlash maqsadida "Prezident iqtidorli farzandlari" milliy dasturi boshlanadi. Dastur doirasida Al-Beruniy nomidagi xalqaro maktab ("Harvardchilar maktabi") tashkil etiladi. Bu yil 8-sinf bitiruvchilaridan 60 nafari saralab olinib, ular top-10 oliyog'hlarga maqsadli tayyorlanadi.

Ta'limda sifat bo'lishi uchun eng avvalo peda-

(Davomi. Boshlanishi 1-sahifada)

goglarni tayyorlash va malakasini oshirish tizimi bunga tayyor bo'lishi kerak. Endilikda pedagog, talaba va o'quvchilar bilim va ko'nikmasini baholashning yagona tizimi yaratilib, mustaqil bo'lgan Pedagogik mahorat va xalqaro baholash markazi tashkil qilindi.

Yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazishda esa turli sport musobaqalari, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar, adabiy kecha va uchrashuvlar uyushtirilishi, albatta, o'z samarasini ko'rsatadi.

Yig'ilishda davlat rahbari tomonidan bu masalaga ham alohida e'tibor qaratilib, ustuvor vazifalar belgilab berildi. Xususan, yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil qilish uchun 900 ga yaqin teatr, madaniyat markazlari va konsert zal-

lari, hududlarda 1,5 mingga yaqin sport maydonchalari, 200 ta oromgoh, 2 mingdan ortiq turizm ob'yektlari imkoniyatlaridan to'liq foydalalanish zarurligi ta'kidlandi.

Buning uchun joylardagi amfiteatr va sayilgohlarda har kuni konsert va musiqa kechalari o'tkazish, madaniyat va istirohat bog'larida san'at ko'rgazmalari, she'riyat kechalari va intellektual o'yinlar tashkil etish topshirildi.

Islohotlarning tub mohiyati inson va uning mahallaga qaratilgan. Sifatli ta'limni tashkil qilish esa ulkan islohotlarning poydevoridir. Bu islohotlarning yalovbardori pedagog-o'qituvchilardir.

O'tkir NORALIYEV,
Xalq deputatlari Qibray tumani kengashi deputati

ДИПЛОМЛИ ДЕХҚОНИНГ ДАЛАСИ... Европа олимларини ҳам қизиқтириб қўйди

Семинар иштирокчилари дастлаб қарам, гулқарам, брокколи, салат барги каби сазавот экинлари еклган далада бўлишди. Тадбир доирасида замонавий агротехнологиялар, юқори ҳосилдор навлар, мухитни назорат қилиш тизимлари ва барқарор сазавотчилик бўйича инновацион ечимлар муҳокама қилинди.

— Университетимизнинг ўқув-илмий тажриба ҳўжалигида профессор-ўқитувчиларимиз томонидан сўнгги беш йилда қарам турлари бўйича 8 та навга патент олинган, бу биз учун ажойиб натижа, — дейди профессор Алишер Шокиров. — Ҳўжалигимизга келиб, оддий қарам етиштириш агротехнологиясини мукаммал ўрганиб олиш фақатгина катта-катта ер эгалари бўлган фермерларимиз учунгина эмас, балки томорқаси бор ҳар бир фуқаро учун ҳам фойдалидир. Масалан, оқ бошли қарам навлари вегетатив ва ҳосил органларининг қатор морфологик белгилари билан бир-биридан фарқ қилади. Брокколи эса қарамдошлар оиласига кирувчи ашилл усимлик бўлиб, унинг катта гулдайдиган боши, пояси ва майда боғланган барглари сазавот сифатида истеъмол қилинади. У ҳом ёки пиширилган ҳолда истеъмол қилинади. Уни ҳозир-

(Davomi. Boshlanishi 1-sahifada)

да хонадонлардаги томорқада ҳам бемалол етиштириш мумкин.

Профессор Салоҳиддин Юнусов баён этган маълумотлар ҳам кўпчилик учун қизиқarli бўлди. Унинг таъкидлашича, 100 грамм бок чой таркибида тиосиянатлар, индол-3-карбинол, лутеин, зеаксантин, сулфарафан ва



изотиосиянатлар каби антиоксидантлар мавжуд. Эляф ва витаминлар билан бир қаторда, бу бирикмалар кўкрак, йўғон ичак ва простата бези саратонидан ҳимоя қилади. Бок чойи К витамини тавсия этилган кунлик қийматининг тахминан 38 фоизини беради.

Шунингдек, тадбир иштирокчилари доцент Мансур Холмуродовнинг гулчилик йўналишидаги замонавий агротехнологиялар, тупроқ ва иқлим



шароитига мос навлар, суғориш ва парвариллаш усулларига оид маълумотлари билан ҳам танишдилар. Ҳўжаликда етиштирилган анвойи гуллар эса мазкур тадбирни ташкил этишда жонбозлик қилган барча хотин-қизларга тўхфа қилинди.

Семинар давомида қишлоқ ҳўжалиги маҳсулотлари ярмаркаси ҳам ташкил этилди. Ушбу ярмаркада маҳаллий деҳқон ва фермер ҳўжаликлари ўзлари етиштирган янги, табиий ва сифатли маҳсулотларини намойиш этишди. Картошка, сабзи, помидор, бодринг, қарам каби асосий сазавот турларидан тортиб, турли хил кўчатлар, кўчатлар ва миллий таомлар тайёрлашда ишлатиладиган маҳсулотлар савдога қўйилди. Ярмаркага ташриф буюрган-

Ўзбекистон етакчиси фан, маданият ва таълим соҳаларидаги ҳамкорлиқни ривожлантириш масалаларига алоҳида эътибор қаратди. Президентимиз ўз нутқида туркий мамлакатлар ўртасидаги таълим, ёшлар сиёсати ва иқтисодий ҳамкорлиқни янада чуқурлаштириш зарурлигини таъкидлар экан, ана шу йўналишлардаги аниқ ташаббус ва таклифларни билдирди.

Бунда, энг аввало, туркий мамлакатлар ўртасида талабалар, ўқитувчилар ва илмий ҳодимлар алмашинувиани янада кучайтириш лозимлиги, ҳамкорликда университетлар ва илмий-тадқиқот марказлари ташкил этиш, туркий тилли давлатлар ёшлари учун қўшма таълим дастурлари ва онлайн платформаларни йўлга қўйиш кераклиги қайд этилди. Ўзбекистонда Туркий давлатлар ташкилоти доирасида Туркий ёшлар академиясини ташкил этиш таклифи илгари сурилди.

Бу ташаббус ёшларнинг билим олиш, инновация ва тадқиқотларда фаол иштирокни рағбатлантирибгина қолмай, туркий давлатлар ўртасида таълим соҳасидаги ҳам-

ТУРКИЙ ҲАМКОРЛИК: ИМКОНИЯТЛАР ЙЎЛИ

корлиқни янги босқичга олиб чиқишига замин яратиши шубҳасиз. Қолаверса, фан ва таълим соҳасидаги ҳамкорлик янада кенгайиб, тараққиётга ҳисса қўшишга тайёр бўлган бўлажак кадрларнинг профессионал шаклланишига ижобий таъсир кўрсатмай қолмайди.

Венгрия университетлари жаҳон рейтингларида юқори ўринлардан жой олган ва уларнинг таълим сифати халқаро стандартларга мос келади. Венгрияда таълим сифати юқори, талабалар эса юксак даражадаги билим ва кўникмаларга эга бўлишади. Масалан, Будапешт Технология ва Иқтисодиёт Университети ва Этвөс Лоранд Университети халқаро даражада тан олинган олий ўқув юртлариридир.

Президент Шавкат Мирзиёев туркий мамлакатлар ёшлари ўртасидаги мулоқот ва ҳамкорлиқни ривожлантириш зарурлигини ҳам алоҳида таъкидлади. Хусусан, ёшлар учун туркий халқлар тарихи, маданияти ва меросини ўргатишга қаратилган халқаро форумлар, танловлар ва фаолият лагерларини ташкил этиш, туркий ёшлар ўртасида стартап ва инновацион лойиҳаларга қўшма грант дастурларини жорий этиш таклиф қилинди. Бундай гоълар ёшлар онгида умумий дунёқарашни шакллантириш, уларнинг интеллектуал ва ижтимоий ўсишига хизмат қилади.

Президентимиз таъкидлаганидек, иқтисодий ривожланишнинг асоси билимли ёшлар ва кучли таълим тизимидир. Шу боис таълим, ёшлар сиёсати ва иқтисодиёт бир-бири билан чамбарчас боғлиқ йўналишлар сифатида кўрилмоқда. Бундан ташқари мазкур олий даражадаги учрашувлар давомида туркий давлатлар ўртасида савдо-сотиқ ва инвестиция оқимларини эркинлаштириш, транспорт ва логистика заңжирларини ривожлантириш орқали экспорт салоҳиятини оширишга эришилди. Шунингдек, Ўзбекистон — Венгрия мамлакатлари ўртасида агросаноат, кимё, фармацевтика, машинасозлик ва таълим соҳаларида қатор лойиҳаларни амалга ошириш бўйича келишувлар қилинди.

Шавкат Мирзиёевнинг Туркий давлатлар саммитидаги иштироки ва Венгрияга ташрифи нафақат дипломатик аҳамиятга эга, балки юртимизнинг таълим, ёшлар сиёсати ва иқтисодий тараққиётдаги стратегик мақсадларини рўёбга чиқаришда муҳим қадам бўлди, дейишимиз мумкин. Қолаверса, бу ташриф Ўзбекистоннинг минтақавий ва халқаро майдондаги нуфузини ҳам янада мустаҳкамлайди.

Гулнора АҲМЕДОВА,
Халқ депутатлари Тошкент вилояти Кенгаши депутати, Ўзбекистон "Адолат" СДП Тошкент вилояти Кенгаши раиси

лар нафақат маҳсулот харид қилиш, балки уларни етиштириш жараёни, уруғ танлаш, ўғитлаш усуллари ва ҳосилдорлиқни ошириш йўллари ҳақида ҳам маълумотлар олишди. Деҳқонлар ва фермерлар ўзаро тажриба алмашдилар, янги ҳамкорлик алоқалари ўратилди. Шунингдек, ярмаркада маҳаллий озиқ-овқат маҳсулотларини ишлаб чиқарувчи кичик бизнес вакиллари ҳам ўз маҳсулотларини тақдим этишди.

Хориждан ташриф буюрган соҳа мутахассислари эса ўзбек олимлари ва илмий деҳқонлар томонидан етиштирилаётган маҳсулотлар уларни ҳам қизиқтириб қўйганини таъкидлашди. Келгусида амалий ҳамкорлик қилишга қарор қилинди.

Бу каби семинарлар қишлоқ ҳўжалигида илгор тажрибаларни кенг тарғиб қилиш, илм-фан ва ишлаб чиқариш интеграциясини мустаҳкамлаш, ёш мутахассисларни тайёрлашда катта аҳамият қасб этиши шубҳасиз.

Тадбирни ташкил этишда фаоллик кўрсатганлар университет томонидан ташаккурномалар билан тақдирланди.

Тўхтамурод ҲАСАНБЕКОВ,
"Тошкент ҳақиқати" муҳбири
Жалолиддин ЭСОНОВ
олган суратлар

ПАРКЕНТ УЗУМИ: БАРГИДАН МАЙИЗИГАЧА ПУЛ

Боғдорчилик, хусусан, узумчилик азалдан халқимиз фаровон яшашини таъминлаб келган соҳадир. Мамлакатимизда мазкур тармоқнинг янги истиқболлари йил сайин юз очмоқда.

▼ Қарор ва ижро

Президентимизнинг 2023 йил 3 августдаги “2023 – 2026 йилларда узумчилик ва виночилик соҳасини янада ривожлантиришга қаратилган чора-тадбирлар тўғрисида”ги қарори ҳам бу борада муҳим дастуриламал вазифасини ўтамоқда. Унга кўра, узумни йирик майдонларда, кластер ва кооперация усулида етиштириш орқали соҳада қўшилган қиймат занжирини яратиш, узумни сақлаш, саралаш ва қайта ишлашни рағбатлантириш чоралари кўрилади.

Хусусан, Паркент туманида иқлим шароити, аҳоли тажрибасидан

фойдаланиб, узум етиштириш, уни қайта ишлаш, тайёр маҳсулот ишлаб чиқариш бўйича кластер тизими йўлга қўйилган. Бу ҳудуд боғбонларининг саъй-ҳаракатлари билан етиштирилган сифатли маҳсулотлар нафақат ички бозорларда, балки хорижда ҳам харидорғир.

Мутахассисларнинг таъкидлашича, ҳозир Паркент бўйича 10,5 минг гектардан зиёд узумзорлар ҳамда 6,9 минг гектар боғ майдонлари мавжуд. Шундан топзорларининг 9,5 минг гектари фермер ҳўжаликлари



ҳиссасига тўғри келади. Жорий йил етиштирилган 60 минг тонна узум ҳосилининг 23 минг тоннаси экспортга, 19 минг тоннаси қайта ишлагча, 7 минг тоннаси бозорлар ва ярмаркаларга, яна 11 минг тонна ички истеъмолга йўналтирилади. Ўз навбатида, узум асосан Россия Федерацияси, Қозоғистон, Саудия Арабистони, Италия, Афғонистон, Украина, Беларусь, Исроил, Туркменистон, Молдова, Польша, Озарбайжон, Япония, Туркия, Арманистон, Латвия, Словения каби давлатларга экспорт қилинмоқда.

Шу кунларда эса тумanning Заркент ҳудудидаги интенсив боғ ва тоқзорларда мавсумий агротехник ишлар амалга оширилмоқда. Бу орқали мавсумда етиштириладиган ҳосилнинг сифатли бўлишига эришилади.



ман бўлими фитосанитар давлат назорат инспектори томонидан тоқзорларда учрайдиган бактериал рак касаллигига қарши курашиш бўйича керакли тавсиялар берилмоқда. Бу орқали мавсумда етиштириладиган ҳосилнинг сифатли бўлишига эришилади.

– Охирги 7-8 йилда етиштирилган узум ҳосилини сифатли сақлаш

ва белгиланган муддатларда ички ва ташқи бозорга чиқариш мақсадида Фермерлар Кенгаши қошида очилган жамғарма маблаглари ҳисобидан 20 минг тонна сифимидаги музлаткич-ли омборхоналар қурилди, – дейди Паркент тумани фермерлар кенгаши раиси Фахриддин Рухиддинов.

Мазкур тумандаги “Заркент Нуржаҳон” фермер ҳўжалиги раҳбари Ҳамидулло Ҳожиёв ҳам кўп йиллардан бери соҳадаги ютуқларга ҳисса қўшиб келмоқда. Ҳозирги пайтда унинг 16 гектар ерида узумнинг “Тоифи”, “Ризамат ота” ва “Кишмиш” каби навлари парваришланмоқда.

– Етиштирилган ҳосилга август ойидан бошлаб харидорлар кўпаяди, – дейди, “Заркент Нуржаҳон” фермер ҳўжалиги раҳбари Ҳ.Ҳожиёв. – Сентябрь ойидан терим бошланади. Ортган ҳосил махсус музлаткичларда сақланади. Бу жараёнда ҳам ўзига яраша талаблар бўлиб, унга доим амал қилинади. Бунинг қўлайлиги шундаки, маҳсулот етиштирувчилар бирданига узумни сотолмаслиги мумкин. Музлаткичларда сақланаётган узумни эса исталган вақтда бозорга чиқариш мумкин. Ҳатто, май ойи ўрталаригача узум топиш мумкин. Шу билан бирга, майиз тайёрлаш ҳам ҳудудда оммалашган. Ҳозирги пайтда майизнинг 1 килограмми ички бозорда 50 мингдан 80 минг сўмгача сотилмоқда.

Дарҳақиқат, меҳнат қилган, тащаббус кўрсатган одам тўкин ҳаётга эришади. Паркентликлар узумчиликдан барака топган. Улар тоқнинг баргидан ҳосилни майиз қилгунча бўлган жараёнда яхши даромад олишга ҳаракат қиладилар. Айниқса, шу кунлари туманга кириб боришингиз билан йўлларнинг икки бетидиги барқ уриб ўсаётган тоқзорларга қараб, кўзингиз қувнайди.

Абдулазиз МУСАЕВ

▼ Yozuvchi yon daftaridan

XOTIRA SHARPASI

... 1976-yilning sentyabridan boshlab qishlog'imizda yangi qurilgan uch qavatli maktabda o'qiy boshladik. Hamma narsa yangi va yangicha edi. Uch yil sinfxonalarga moslashtirilgan va har tarafga sochilib ketgan binolarda o'qigandik. Endi hamma sinflar uch qavatli korpusda, yana alohida fan kabinetlarida dars olardik.



Sinflarga kitob javonlari qo'yilgandi. Bu javonlar har bir sinfda o'z kutubxonasi bo'lishi uchun mo'ljallangan ekan. O'zimizda, uylarimizda mavjud bo'lgan badiiy adabiyotlardan olib kelib qo'yishimiz kerak edi. Men uchta kitob qo'shgandim. Shu tariqa har xil yoshga mo'ljallangan yuztachta yangi va eski kitoblar yig'ilib qoldi. Kimdir kutubxonachi bo'lib tayinlandi, ammo kitob olish erkin edi: bitta daftar qo'yilgan bo'lib, kim qaysi kitobni uyiga olib ketsa, yozib qo'yardi. Tanaffusda olib o'qiydiganlar xohlasa yozar, xohlasa yozmasdi.

O'sha kitoblar orasida ingliz fantast adibi Gerbert Uellsning “Ko'rinmas odam” asari ham bor ekan, unchalor katta emasdi. O'sha kitobni o'qiy boshlagach, shu qadar qiziqib ketdimki, dars payti ham partaning tagiga berkitib o'qirdim.

O'sha yillari fantastika janri juda mashhur edi. Jyul Vernning ko'plab romanlari o'zbek tiliga tarjima qilingandi: “Kapitan Grant bolalari”, “O'n besh yoshli kapitan”, “Venera sayyorasi sayohati”, “Oyga uchish”, “Kapitan Nemo”. Yana boshqa fantastik adiblarning “Odam amfibiyasi”, “Plutoniya”, “KES yulduzi”, “Venera sayyorasi bulutlari”, “Drion yerni tark etadi”, “Ikki okean siri”, “Bilmasvoyning oyga sayohati”, “Baron Myunxauzen sarguzashtlari”, “Robinson Kruzo”, “Gulliverning sayohatlari” kabi yuzlab kitoblarni o'qib chiqardik.

“Ko'rinmas odam”ning ko'ziga katta qora ko'zoynak taqib, sharfga o'ralib, boshiga shlyapa kiyib, paltoga o'ralib olishi xuddi matematika o'qituvchimizga o'xshab ketardi va bu muallim ko'rinmas odam bo'lsa kerak, deya orqasidan kuzatib ham yurardim.

Yoz. Sakkinchi sinfga o'tgan paytim kolxoz bog'ida tashkil etilgan pioner lageriga meni yosh o'quvchilar otryadiga sardorlik qilasan deya, ota-onamdan so'rab, ilk marta o'tiz kuncha majburlab yotqizishgandi. Yozda sira ham dam olishni o'ylamasdik. Sigir boqaridik, paxta chopardik, uyda qo'yarga o't o'rib, eshakda olib kelardik, dashtdan somon tashirdik, shaharga olcha, o'rik olib borib sotardik, dalalarda piyoz o'tab, kuzgacha ikki yuz so'mcha naqd pul, bir-ikki qop piyoz ishlab olib, o'zimizni o'zimiz ta'minlab yurardik. Shuncha puldan qolamanmi, deya istar-istamas lagerga borganman.

O'sha yerda ham kitob javoni bor ekan.

Fantastik asar bo'lgan “Sharpa-odam” kitobchasi meni qiziqitirib qo'ygandi. Bu asar

“ko'rinmas odam”ning boshqacha varianti bo'lib, sharpa-odam ko'zga ko'rinadi, ammo devorlardan bemalol o'tib keta oladi. Qamab qo'yishsa tashqariga chiqib ketaveradi. Yopiq do'konlarga ham kirib ketaveradi.

Kitob juda qiziq bo'lgani bilan, judayam badbo'y edi. Chamasini bu kitob dog'lanmagan paxta yog'i to'kilgan joyda qoldirilgan, bir cheti, aynan o'rta qismi yog'ga tegib turgan va yog' yarim doira yasagancha kitobga singishib ketgandi. Kitob badbo'ylikdan tashqari juda qiyinchilik bilan o'qilardi. Chunki, yog' ta'sirida varaqlar shaffoflashib, orqa sahifadagi harflar ham ko'rinib qolgandi. Asl matnini orqa sahifadagi matndan ajratib o'qish kerak bo'lardi. Kunduzgi uyqu soatida ham kitobni choyshabga o'ralib olgancha o'qirdim, natijada tor joydagi halo dog'lanmagan yog' isiga to'yinib, nafas olib bo'lmasedi. Mendan nimaga sendan yog' hidi keladi, deb so'rashardi. Kitob qahramoni yashashda qanchalar qiyinalgan bo'lsa, men bu kitobni o'qib tugatishda ana shunday mashaqqatlarga chidashimga to'g'ri kelgan.

Sharpa-odamning taqdiri ham ko'rinmas odamniki kabi fojiali tugaydi. Ko'rinmas odam o'z irodasini ishga solgan paytida qattiq sathda ushlanib tura oladi. Agar irodasini ishga sololmasa, qo'lida ushlagan narsasi tushib ketaveradi.

Bir gal u bankka o'g'rilikka tushib, tilla tangalarni qo'lga olgani bilan ular badanidan o'tib yerga to'kilib tushaveradi. Bank pulxonasi eshigini ochganlarida bir uyum tangalar ustida yig'lab o'tirgan o'g'riga duch kelishadi. Uni ushlamoqchi bo'lishganida, ko'llardan o'tib ketadi va devorga singib, g'oyib bo'ladi. Boshqa shaharga poyezdda ketayotgan payti uyqu g'olib kelib, mudrab ketadi. Uyqu payti irodasini ishlata olmagan uchun vagondan temir yo'lga tushib qoladi. Keyin o'zi poy-u piyoda yo'lga tushganida, oyoqlari yerga botib ketaveradi. Yerga botib ketgan oyoqlarini kich bilan sug'urib olguncha juda holdan toyadi.

Eng oxirida horib-charchagan sharpa-odam maysalar ustiga cho'zilib uxlab qoladi va uning vujudi yerga singishib ketadi.

Afsus, asar muallifi, tarjimoni yodimda qolmagan. Hayot yo'llarida keyin ham bu asarga hech ro'baro' kelmadim.

Bu kitobni o'qiganlar bormi?

Olloyor XO'JANDIY

▼ Эълон

“FORCE IN JUSTICE” Адвокатлик бюросига (СТИР: 207221695) тегишли думалоқ муҳр йўқолганлиги сабабли

БЕКОР ҚИЛИНАДИ.

So'nggi yillarda yurtimizda aholi orasida sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish maqsadida sportni ommalashtirish bo'yicha qator ishlar amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, oliygohlarda yoshlarning jismoniy tarbiya va sport yo'nalishida yetuk mutaxassislardan ta'lim olishlari kelgusida ularning professional kadr bo'lib yetishlariga zamin yaratmoqda.

Chirchiq davlat pedagogika universiteti misolida aytadigan bo'lsak, bugungi kunda Jismoniy madaniyat fakultetida tajribali professor o'qituvchilar faoliyat olib bormoqda.

Bu yerda talabalarning jismoniy va ruhiy salomatligini mustahkamlash, ularni

SOG'LOM KELAJAK KAFOLATI

sportga jalb qilish, sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish, mahoratli pedagoglar va sportchilarni yetishtirish maqsadida maxsus yo'riqnomalar ishlab chiqilgan. Talabalarga jismoniy madaniyat bo'yicha fundamental bilimlar berilayotgani, turli yo'nalishlar bo'yicha mashg'ulotlar tashkil etilayotgani, talabalar o'rtasida sport musobaqalari, Universiada, Besh tashabbus, talabalar ligasi va boshqa tadbirlar o'tkazilayotgani, jismoniy madaniyat va sport sohasida ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilayotgani shular jumlasidan.

Bundan tashqari, fakultetning moddiy-texnik bazasi sezilarli darajada yaxshilanib, zamonaviy sport anjomlari bi-

lan ta'minlandi. Natijada, talabalarimiz zamonaviy bilim olish imkoniyatiga ega bo'ldilar. Shuningdek, fakultet professor-o'qituvchilarining ilmiy salohiyati oshirildi. Sohaga oid ko'plab ilmiy maqolalar, darsliklar va o'quv qo'llanmalari nashr etildi. Qilingan sa'y-harakatlar bugun o'z mevasini berib, talabalarimiz respublika va xalqaro musobaqalarda yuqori o'rinnlarni egallab kelishmoqda.

Xususan, joriy o'quv yili-da o'tkazilgan “Universiada–2024” sport musobaqalarida talabalarimiz faol ishtirok etishib, sportning kurash hamda dzyudo turi bo'yicha faxrlari o'rinnlarni qo'lga kiritishdi. Bundan tashqari, ular qator

xalqaro musobaqalarda ham yurtimiz sharafiga himoya qilishdi. Jumladan, Butunjahon yozgi Universiada o'yinlarida ishtirok etgan talabalarimiz sportning dzyudo turi bo'yicha jamoaviy bellashuvlarda kumush medalni qo'lga kiritishdi. Shuningdek, Nyu-Yorkda bo'lib o'tgan XXXI Butunjahon qishki Universiada ham munosib ishtirok etishib, muxlisu mutaxassislarga e'tirofiga sazovor bo'lishdi. Bu ham bo'lsa yurtimizda sportga, ta'limga, qolaversa, yoshlarga bo'lgan e'tibor natijasidir.

Javlonbek RAHIMBERDIYEV,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti Jismoniy madaniyat fakulteti o'qituvchisi

▼ Эҳтиёт шарт!

Кунлар исий бошлаши билан бутун дунёда нафақат она табиат, балки турли касалликлар-у, вирус тарқатувчи ҳашаротлар ҳам “уйғонади”. Бу эса инсонлар орасида турли юкумли хасталикларнинг тарқалишига сабаб бўлади. Шулардан бири – Қрим – Конго Геморрагик иситмаси (ҚКГИ) касаллиги.



ҚКГИ – арбовирус қўзғатдиган, тана ҳароратининг кўтарилиши, геморрагик аломатлар билан кечадиган, табиий шароитда трансмиссив йўл билан ёки табиий ўчоқли ва қон сўрувчи каналар (иксод каналар) чақиши орқали юқадиган ўта хавфли юкумли касаллик бўлиб, у Абу Али ибн Сино даврида ҳам маълум бўлган. Ўша замонларда ушбу вирус халқ тилида “қора

ҳалак” (қора ўлим), “хуни муни” (бурундан қон кетиш) каби номлар билан аталган. Мазкур касаллик юқиб йўлларининг кўплиги, кенг ва тез тарқалиши, табиий ўчоққа эгалиги, касаллигининг оғир кечishi ҳамда ўлим хавфининг юқорилиги билан бошқа “касбдош”ларидан ажралиб туради.

Касаллик асосан чўпонлар ва уларнинг оила аъзолари орасида кўп учрайди. Ачинар-

лиси, “қора ўлим” одам танла-майди: ёшми, қарими бирдек таъсир қилаверади.

Рақамларга эътибор қаратадиган бўлсак, вирусдан азият чекканларнинг қарийб 80 фоизини 15-60 ёш атрофидаги инсонлар ташкил этмоқда.

Вирусга чалинган беморларда терида, инъекция қи-

ли ҳашаротни эҳтиёткорлик билан олиб ташлаш, жароҳатланган жойни йодли пахта билан тозалаб, боғлаб қўйиш ҳамда зудлик билан шифокорга мурожаат қилиши керак.

Хўш, мазкур касалликка чалинмаслик учун нима қилиш лозим? Бунинг учун:

– молхоналарни тозалашда махсус кийим-бошлардан

фойдаланиш, сигир ва эчкиларни соғиш вақтида танасидаги каналарни бармоқ билан эзиб ўлдирмаслик;

– молларда кана аниқланганда дарҳол ветеринария ходимларига мурожаат қилиб, уларнинг тавсияси асосида чора

қўриш;

– қўй ва эчкиларнинг жунини олиш (қирқим) ишларида махсус кийимлар билан ишлаш;

– гигиена қоидаларига қатъий риоя қилиш керак.

Агар инсонни кана чақса ёки қўли кана қони билан ифлосланса, зудлик билан яқин атрофда жойлашган шифохоналарга мурожаат этиш лозим. Бу орқали сиз ўзингиз ва яқинларингизни хавфли касалликдан асраган бўласиз.

Зулфия САЙЛИЕВА,
Санитария-эпидемиология осоийшатилик ва жамоат саломатлиги хизмати вилоят бошқармиси мутахассиси



TOSHKENT HAQIQATI
TASHKENTSKAYA PRAVDA

Muassis:

TOSHKENT
VILOYATI
HOKIMLIGI



“Toshkent haqiqati” va
“Tashkentskaya pravda”
gazetalarini tahrir hay'ati:

Zoyir MIRZAYEV
(tahrir hay'ati raisi)

Abdusamad NOSIROV
Ummat MIRZAUQULOV
Hotamjon SAYDAHMEDOV
G'afurjon MUHAMEDOV
Sayyora FAYZIYEVA
Tohir ARIPOV
Mahmud TOIR
Azamat MIRZAYEV
Uskenboy ATEMOV
Abdulla XURSANOV
Shahboz NIZOMIDDINOV
Kumush EGAMBERDIYEVA
Olimjon BEGALIYEV
Behzod QOBULOV
Sergey MUTIN

Bosh muharrir:

G'ayrat SHERALIYEV

Qabulxona:

(55) 520-64-95

Bosh muharrir o'rinbosari:

(55) 520-04-10

Mas'ul kotib:

(55) 520-05-10

Bo'lim muharrirlari:

(55) 520-06-20, (55) 520-04-20

E'lonlar va hisob-kitob bo'limi:

(55) 520-21-20

e-mail: toshkenthqiqati@umail.uz

Mas'ul kotib:

Alloma AZIZOVA

Navbatchesi:

To'xtamurod HASANBOYEV

Ekspositor:

Behruz NURBOBOYEV

Bosishga topshirish vaqti – 21.00.

Bosishga topshirildi – 22.30.

Nashr ko'rsatkichi – 205.

Buyurtma G-535.

4 321 nusxada chop etildi.

Hajmi – 2 taboq. Ofset usulida

bosildi. Qog'oz bichimi A-2.

Bahosi kelishilgan narxda.

Toshkent viloyati Axborot va ommaviy
kommunikatsiyalar boshqarmasida
2011-yil 12-yanvarda
03-001 raqami bilan
ro'yxatga olingan.

Manzil:
111500, Nurafshon shahri,
Toshkent yo'li ko'chasi, 90.
Toshkent shahridagi
ofisimiz: Bektemir tumani,
Ittifoq ko'chasi, 2.
ISSN 2010-9318.

Gazeta «Toshkent haqiqati»
tahririyati kompyuter markazida
terildi va Tohir Mahmudxo'jayev
tomonidan sahifalandi.

Haftaning
chorshanba va shanba
kunlari chiqadi.

«SHARQ» nashriyot-matbaa
aksiyadorlik kompaniyasi
bosmaxonasida bosildi.
Korxona manzili:
Toshkent shahri,
Buyuk Turon ko'chasi, 41-uy.

1 2 3 4 5 6



*Куни кеча халқимиз-
нинг ардоқли ёзувчиси
Хайриддин Султоннинг
“Осмони фалакларда”
деб номланган янги ки-
тобининг тақдимот
маросими бўлиб ўтди.
Кинематография
агентлигининг “Ренес-
санс” отлиг “қасри
кино”сидаги насру
наво кўп қатори ка-
минани ҳам ҳайрат
учоғида сўз санъат-
корининг мухташам
кўнгил осмони сари
парвоз эттирди.*

“КРУТОЙ”

ёзилган китоб

Шукри, ўзбек адабиёти серқирра,
ранг-баранг мавзуларга тўла. Йўлчи
ҳақида ҳам, йўлчилар ҳақида ҳам,
боринги, темирйўлчилар ҳақида ҳам
бадий асарларимиз бор. Маскур ки-
тобдан ўрин олган уч ҳикоя эса ада-
биётимизда деярли қўл урилмаган
охорли мавзу – учувчилар ҳаётига бағишлан-
ган.

Китоб руҳи ва мазмунига уйғун, креатив
ёндашувлар билан безалган, кишига чинакам
парвоз завқини берадиган кинозалда учувчи-
лар ҳаётидан ҳикоя қилувчи уч ҳикоя ҳам ада-
бий ҳам кино, ҳам сахна талқинида тақдим
этилди.

Жаҳон ва ўзбек классик мусиқа санъатининг
нодир намуналари таассурот ва ҳаяжонлар-
ни тўлдириб, кўнгилларга мунаввар туйғулар-
ни етаклаб кирди. Бундайроқ қилиб айтганда,
Шухрат Худойқул раҳбарлигидаги ўзбек ҳа-
во йўлларини Абдуҳошим Исмоил бошчилигида-
ги ўзбек наво йўллари ёритиб тургандек бўлди.
Китобдаги биринчи ҳикоя – “Икки қарра
қаҳрамон” шундай жумлалар билан бошлана-
ди:

“Менинг бир учувчи дўстим бор. Қаҳрамон.
Йўқ, оти эмас, ўзи ҳақиқий қаҳрамон.”

Сўнгги – учинчи ҳикоя эса шундай ақун то-
пади:

“Тошкент эйрвэйс” компаниясининг Тош-
кент – Астана йўналиши бўйича 1386-рейс
билан парвоз қилаётган “Эйрбас-320” са-
молёти авиаҳалокатга учрагани, ҳалокат
натижасида бир киши қурбон бўлганини бир
юзу етмиш саккизта йўловчидан биронтаси
сезмади.”

Англаш мумкинки, китобда бошдан-оёқ
“само лочинлари” деб аталадиган машаққат-
ли касб эгаларининг мардлик ва матонатга
йўғрилган фаолияти, уларнинг оддий инсоний
қалб кечинмалари, қатъият ва иродаси, севи-
ги ва садоқати ниҳоятда ҳаётий, зўр маҳорат ва
ихлос билан қаламга олинади.

**Тақдимотдан қайтгач, китобни қайтадан
ўқишга эҳтиёж сездим ва италян ёзувчиси
Кальвинининг “Классиклар “ўқидим” эмас,
“қайтадан ўқияпман” дея таърифланадиган
ижодкорлардир”, деган гапини эсладим...**

Яширишининг ҳолати йўқ, шу уч ҳикояни бир
баҳонаи сабаб билан китоб нашр этилаётган
пайтдаёқ ўқиб чиққандим. Тақдимотдан қайт-
гач, китобни қайтадан ўқишга эҳтиёж сездим ва
итальян ёзувчиси Кальвинининг “Классиклар
“ўқидим” эмас, “қайтадан ўқияпман” дея таъ-
рифланадиган ижодкорлардир”, деган гапини
эсладим...

Дарҳақиқат, бу уч ҳикоя қанчалар ҳаётий,
шиддатли воқеаларга бой, романтик сюжет
йўналишларига эга бўлишига қарамай, кўнгил-
да инсон руҳиятининг сирли тилсимотларини
жумбоқ қилиб қолдиради. Уларни ўқиган минг
киши ўзича минг хил ечим ва жавоблар излай-
ди.

Одатда, айрим китоблар мутоласида ё кино
томошасида қаҳрамонларнинг ўзаро сўзла-
шувларига қараб, кўп қато-
ри мени ҳам “Масалан, шу
жойда, шу ўринда ўзбек
шундай дейдими?” деган
савол қийнайверади. Бу
ҳикояларда, умуман, ёзув-
чининг бошқа асарларида
ҳам сўзлашув матнлари,
диологлар шундай пи-
шиқ, ҳаётий ва теранки,
ўқувчида юқоридаги са-
волга ҳожат қолмайди

– ҳа, ўзбек шу вазиятда айнан шундай дейди!

“Кўча тили”дан ҳам, жаргонлардан ҳам, бу-
гунги тренддаги сўзу иборалардан ҳам жуда
усталик билан, ўрнида фойдаланади ёзувчи.

Масалан, “Бир кишилик авиаҳалокат” ҳикояси-
да Садафнинг Искандарга тармоқдан ёзган ха-
тини ўқинг. Қанчалик аччиқ бўлмасин, у бугунги

СМС ёзишмалари “стилистика”си-
нинг мумтоз намунаси.

Тақдимотда ҳикоялар таниқли
адабиётшунослар, ёзувчи ва шоирлар
томонидан бадий талқин этиб берил-
ди. Масалан, “Бир кишилик авиаҳало-
кат” ҳикояси ҳақида ўз таассуротлари
билан ўртоқлашар экан, мумтоз ада-
биётшуносликда “олимпларнинг султо-
ни” деб лутф қилинадиган Султонмурод
Олим шундай деди:

“Бир кишилик авиаҳалокат” – бу сиру
синаотга тўла ҳикоя. Гўзал Садафнинг
бахтиқаро тақдири кишини уйга толдира-
ди. Уни уч йил сўрамаган, ҳатто, ўз ўғлини
қўришга бир маротаба ҳам келмаган эрига
хиёнатини беихтиёр тушунгандек бўласиз.
Лекин уни еру қўққа ишонмай севган, хоти-
ни, фарзанди, обрўй-нуфузи қолиб, бутун
борлиғини унга бағишлаган Искандарга хиё-
нати – нимаси?



Дарвоқе, садаф – Яратганнинг инояти билан
дур чиганок ичида пайдо бўладиган қиммат-
баҳо дур эканини ҳам айтишимиз жоиз.

Ҳақиқий санъат асари – бу ҳамisha жавоб-
сиз савол, ечилмаган жумбоқ. Фожиали яқун
топган бу ғамгин муҳаббат қиссасини ўқир
экансиз, беихтиёр ҳазрат Навоийнинг:

Аллоҳ-Аллоҳ, ишқ аро мундоқ

балолар бор эмиш! –

деган ўтли мисраси хотирга келади...

Қувонарлиси, аллақачон сеvimли ёзувчи-
мизга айланган Хайриддин Султон кейинги

**“Бир кишилик авиаҳалокат” – бу сиру синаотга
тўла ҳикоя. Гўзал Садафнинг бахтиқаро тақдири
кишини уйга толдиради. Уни уч йил сўрамаган, ҳат-
то, ўз ўғлини қўришга бир маротаба ҳам келмаган
эрига хиёнатини беихтиёр тушунгандек бўласиз.
Лекин уни еру қўққа ишонмай севган, хотини, фар-
занди, обрўй-нуфузи қолиб, бутун борлиғини унга
бағишлаган Искандарга хиёнати – нимаси?**

йилларда халқимизга, соғинган мухлисларга
мана шундай қимматбаҳо дуру садафлардан
таркиб топган бир нечта китоблар тортиқ этди.

Унинг ҳар бир китоби жамиятнинг турли
қатламларига чуқур кириб борди, сингди, қўл-
ма-қўл ўқилди. Орамиздаги одамлар ҳақида
ёзилган нарсаларни орамиздаги одамлар, ал-

Ғайрат ШЕРАЛИЕВ

Халқаро фестивал

ВИЛОЯТ ИЖОДКОРЛАРИ

Туркияда

Айни кунларда Тошкент ви-
лоят бонқармаси тизимидаги
ижодий жамоалар Туркиянинг Ка-
раман вилоятида “Туркий тилли
давлатлар байрами” ҳамда Мер-
син вилоятида “Турк дунёси мада-
нийат шуъласи” фестивалларида
иштирок этишмоқда.

Халқаро туркий маданият ташкилоти
– ТУРКСОЙ мезонлиқ қилаётган маскур
тадбирда вилоятимиз жамоасининг чиқиш-
лари фестивал иштирокчилари ва меҳ-
монлар томонидан катта қизиқиш билан
қарши олинмоқда.

Таъкидлаш лозимки, ушбу ташаббус
туркий халқларни яқинлаштириш, умумий
илдизларга эга маданиятимизни халқаро
майдонда кенг тарғиб этишда муҳим қа-
дамдир.

МАКТАБ ЁШИДАГИ “МАГИСТРЛАР”

Куни кеча Пискент туманида
Ўзбекистон ёзувчилар уюшмаси
аъзоси Собиржон Иномов тавал-
лудининг 75 йиллиги муносабати
билан ташкил этилган нафис ада-
биёт мажлисида иштирок этганлар
ҳам бу гап рост эканига амин бў-
лишди.

Ўзбекистон халқ шоири,
Ўзбекистон Ёзувчилар уюшмаси
вилоят бўлими раҳбари Маҳмуд
Тоир, Ўзбекистон Журналистлар
уюшмаси вилоят бўлими раҳбари
Раҳматилла Шералиев, Аxbорот
ва оммавий коммуникациялар
агентлиги вилоят бошқармаси
бошлиғи Шахбоз Низомидди-
нов, вилоятда фаолият юри-

таётган тахририятлар жамоалари,
фахрийлар, шунингдек, юбилар-
нинг яқинлари, дўстлари ва шо-
гирдлари уни кўтлуг сана билан
муборакбод қилар экан, Собиржон
Иномов ҳаёти давомида оила,
садоқат ва меҳр-оқибат бораси-
да сермазмун асарлар яратгани,
бунда марҳума аёли, истеъдодли
қаламқаш Сайёра Йўлдошеванинг
ўрни бекиёс бўлганлигини алоҳи-
да таъкидладилар.

– Бундан олтимиш йил аввал
мактабда Собиржонга турли фан-
лардан сабоқ берган эдим, – деди
фахрий муаллима Қаромат опа
Исаева. – Энди эса у ёзган асар-
лар бошқаларга ҳаётдаги қувонч

Қутлов

Ишонмаяписиз. Ил-
гари лоплар асо-
сан “Муштум” жур-
налида берилар
эди, энди расмий
газеталар ҳам бу
“қадимий” рукдан
фойдаланадиган
бўйда, демоқчи-
сиз-да?



ва ташвиш-
лар, меҳр ва
оқибат, вафо ва
садоқат каби ин-
соний фазилатлар-
дан дарс бермоқда. Шундай шо-
гирдларин билан фахрланаман.

– Яқинда Олмалик кон-
металлургия комбинати ҳодими-
нинг ўғли Бразилияда бўлиб ўт-
ган 59-Халқаро Менделеев кимё
олимпиадасида иштирок этиб,
олтин медал соҳибига айланган
ҳақида “Тошкент ҳақиқати” га-
зетасида ўқиб, бир воқеа ёдимга
тушди, – деди фахрий муаллим
Абдумалик Малпаҳўжаев. – Ўй-
лаб қарасам, мен ва йигирма

нафар тенгдошим ҳам мактаб
давримиздаёқ “магистр” бўлган
эканмиз. 1979 йили биз ҳам уни-
верситетни битирганимиз. Пис-
кент туман газетаси тахририяти
хузурида ташкил этилган “Ишчи-
қишлоқ мухбирлари университет-
тети” деб аталган бу илмгоҳнинг
ўша пайтдаги раҳбари эса бугун
кўтлуг ёшини нишонлаётган Со-
биржон Иномов эди...

Тўхтамурод ҲАСАНБОВ,
“Тошкент ҳақиқати” мухбири